



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 90 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI JORIY ETISHDA IJTIMOIY HAMKORLIK VA JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISH

Arslanova Madinaxon Mansurovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, "Maktabgacha va inklyuziv ta'lim metodikasi" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirishning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy hamkorlik, jamoatchilik fikri, inklyuziv madaniyat, pedagogik qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy sheriklik, alohida ta'lim ehtiyojlari.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical foundations of social partnership and public opinion formation in the effective implementation of inclusive education in preschool educational organizations.

Key words: inclusive education, preschool education, social partnership, public opinion, inclusive culture, pedagogical support, social collaboration, children with special educational needs.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и практические основы социального партнерства и формирования общественного мнения в процессе эффективного внедрения инклюзивного образования в организациях дошкольного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, социальное партнерство, общественное мнение, инклюзивная культура, педагогическая поддержка, социальное сотрудничество, дети с особыми образовательными потребностями.

KIRISH

Jahon hamjamiyatida inson huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish hamda har bir shaxsning teng ta'lim olish huquqini kafolatlash barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim zamonaviy ta'lim siyosatining muhim strategik yo'nalishi hisoblanib, u barcha bolalar uchun, ularning jismoniy, intellektual, sensor yoki psixofiziologik xususiyatlaridan qat'i nazar, sifatli ta'lim muhitini yaratishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarni mavjud tizimga moslashtirish emas, balki ta'lim tizimining o'zi har bir bolaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq qayta tashkil etilishini ta'minlashdan iborat.

Ushbu yondashuv BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasida ham ta'lim sohasidagi asosiy prinsip sifatida e'tirof etilgan bo'lib, unda inklyuziv ta'lim inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va kamsitmaslik tamoyillarini amalga oshirishning muhim mexanizmi sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda inklyuziv ta'lim faqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni umumiy ta'lim muassasalariga jalb qilish bilan cheklanmasdan, balki ta'lim muhitining barcha ishtirokchilari uchun ochiqligi, moslashuvchanligi va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida qayta tashkil etilishini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish davlat ta'lim siyosati ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun hamda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlarda inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etishning huquqiy, tashkiliy va metodik asoslari mustahkamlangan.

Biroq xalqaro va milliy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim samaradorligi faqat normativ-huquqiy baza yoki moddiy-texnik ta'minot bilan belgilanmaydi. Uning natijadorligi jamiyatda inklyuziv qadriyatlarining



shakllanganligi, ijtimoiy sheriklik sub'yektlari o'rtasidagi hamkorlik darajasi hamda jamoatchilik fikrining ijobiy yo'naltirilganligi bilan ham uzviy bog'liq. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish va jamoatchilik ongida inklyuziv madaniyatni shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, mahalla, ota-ona, pedagog, davlat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda keng jamoatchilikning hamkorligini kuchaytirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim pedagogika fanining insonparvarlik, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar hamda har bir shaxsning qadr-qimmatini e'tirof etish tamoyillariga asoslangan ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarga ko'ra, inklyuziv ta'limning mohiyati alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun maxsus ta'lim muhitini tashkil etish bilan cheklanmaydi. Uning asosiy mazmuni ta'lim tizimini har bir bolaning individual imkoniyatlari, qobiliyati va ehtiyojlariga moslashtirish orqali barcha tarbiyalanuvchilar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash, kamsitishning oldini olish hamda inson huquqlarini amalga oshirishning muhim institutsional mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda ta'lim muassasasi faqat bilim beruvchi muassasa emas, balki barcha bolalarning ijtimoiylashuvi, shaxsiy rivojlanishi va hayotga moslashuvini ta'minlovchi ijtimoiy muhit vazifasini ham bajaradi.

Pedagogik nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim ko'p komponentli hamda integrativ tizim hisoblanadi. Unda pedagogik, psixologik, tibbiy, ijtimoiy va huquqiy yondashuvlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda amal qiladi. Mazkur sohalarining o'zaro muvofiqlashgan faoliyati ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash bilan bir qatorda, bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantiradi.

Maktabgacha yosh davri inson hayotida shaxs shakllanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bolada muloqot madaniyati, hamkorlik ko'nikmalari, bag'rikenglik, o'zaro hurmat, jamoada faol ishtirok etish, ijtimoiy mas'uliyat hamda empatiya kabi muhim shaxsiy sifatlar rivojlanadi. Shu sababli inklyuziv ta'limni maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab yo'lga qo'yish nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki barcha tarbiyalanuvchilarda inklyuziv madaniyat va fuqarolik qadriyatlarini erta yoshdan shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogika va sotsiologiya nazariyalarida jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy hodisa yoki jarayonga nisbatan aholi tomonidan shakllangan umumlashgan munosabat, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy baholar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Ta'lim sohasida esa jamoatchilik fikri davlat ta'lim siyosati samaradorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy resurs hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta'limni joriy etish jarayonida aholining ijobiy munosabati, xabardorlik darajasi hamda ta'lim ishtirokchilarining qo'llab-quvvatlashi amaliy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'limga nisbatan ijobiy jamoatchilik fikrining shakllanishi ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etish, diskriminatsion munosabatlarni kamaytirish hamda jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini qaror toptirishga xizmat qiladi. Bu esa alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ta'lim muassasasiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ularning tengdoshlari bilan erkin muloqot qilishi hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun muhim pedagogik shartlardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, jamoatchilik fikrini shakllantirish bir martalik axborot kampaniyasi sifatida emas, balki uzluksiz, maqsadli va tizimli ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda aholining huquqiy, psixologik va pedagogik savodxonligini oshirish, inklyuziv ta'limning ijtimoiy ahamiyatini keng targ'ib qilish hamda ta'lim ishtirokchilari o'rtasida ochiq muloqotni yo'lga qo'yish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta'limning nazariy va metodologik asoslari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, M. Ainscow va T. Booth inklyuziv ta'limni barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan pedagogik tizim sifatida talqin qilgan. L. Florian inklyuziv yondashuvning samaradorligi pedagoglarning kasbiy kompetentligi va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarda inklyuziv ta'limni rivojlantirishda davlat, oila va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Mazkur ilmiy qarashlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish va jamoatchilik fikrini shakllantirishning nazariy asoslarini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limning samaradorligi ta'lim tashkilotining moddiy-texnik ta'minoti yoki pedagoglarning kasbiy kompetentligi bilan cheklanib qolmaydi. Uning natijadorligi ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasi, ijtimoiy sheriklik munosabatlari hamda jamiyatda shakl-

langan inklyuziv madaniyat bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirish kompleks ijtimoiy-pedagogik yondashuvni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali joriy etish jamiyatning turli institutlari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim muayyan bir ta'lim muassasasi doirasida amalga oshiriladigan jarayon emas, balki davlat boshqaruvi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, oila, sog'liqni saqlash muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari hamda keng jamoatchilikning o'zaro muvofiqlashgan faoliyatiga asoslangan ijtimoiy-pedagogik tizim hisoblanadi. Shuning uchun jamoatchilik fikrini shakllantirish mazkur sub'yektlarning hamkorligini ta'minlovchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida qaraladi.

Pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'limga nisbatan ijobiy munosabat aholining ushbu jarayon haqidagi bilim darajasi, amaliy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq. Aholining inklyuziv ta'lim haqidagi tushunchasi qanchalik keng va ilmiy asoslangan bo'lsa, ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu bois jamoatchilik fikrini shakllantirish uzluksiz, maqsadli va kompleks tarzda amalga oshirilishi lozim.

Bu jarayonda quyidagi o'zaro bog'liq mexanizmlarning samarali qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

- 1. Axborot-ma'rifiy mexanizm.** Axborot-ma'rifiy mexanizmning asosiy vazifasi aholining inklyuziv ta'lim to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish, mavjud stereotiplarni bartaraf etish hamda inklyuziv qadriyatlarni targ'ib qilishdan iborat. Ushbu mexanizm doirasida ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, ochiq muloqotlar, vebinarlar, "Ochiq eshiklar kuni", ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, ijtimoiy tarmoqlardagi axborot kampaniyalari, elektron resurslar va multimedia materiallardan tizimli foydalanish yuqori samara beradi. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish aholining turli qatlamlarini qamrab olish hamda inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatini yaratadi.
- 2. Pedagogik-psixologik mexanizm.** Pedagogik-psixologik mexanizmning asosiy maqsadi pedagoglar, ota-onalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilarida inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish hisoblanadi. Buning uchun psixologik treninglar, kommunikativ mashg'ulotlar, kouching dasturlari, ota-onalar klublari, individual va guruhli maslahatlar hamda amaliy seminarlarni muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadbirlar ishtirokchilarda empatiya, bag'rikenglik, konstruktiv muloqot madaniyati va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.
- 3. Ijtimoiy sheriklik mexanizmi.** Inklyuziv ta'limning barqaror rivojlanishi ijtimoiy sheriklik munosabatlari bilan samaradorligi bilan uzviy bog'liq. Ijtimoiy sheriklik davlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig'inlari, tibbiyot muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik sub'yektlari hamda ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur hamkorlik natijasida resurslardan oqilona foydalanish, bolalarga kompleks xizmatlar ko'rsatish, pedagoglarning malakasini oshirish, ota-onalarni qo'llab-quvvatlash hamda mahalliy hamjamiyatning ta'lim jarayonidagi ishtirokini kengaytirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy sheriklik sub'yektlarining mas'uliyatini aniq belgilash inklyuziv ta'limni boshqarish samaradorligini yanada oshiradi.

Monitoring va baholash mexanizmi. Inklyuziv ta'limni samarali boshqarishda monitoring va baholash tizimi muhim o'rin tutadi. Bunda baholash faqat bolalarning ta'lim natijalari bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlarni ham qamrab olishi lozim. Jumladan, pedagoglarning inklyuziv kompetentligi, ota-onalarning qoniqish darajasi, hamkor tashkilotlar faolligi, jamoatchilik tadbirlari samaradorligi, ijtimoiy tarmoqlardagi ijobiy munosabatlar hamda bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari asosiy baholash mezonlari sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bunday yondashuv inklyuziv ta'lim jarayonida mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Olib borilgan nazariy tahlillar hamda ilg'or milliy va xalqaro tajribalarni umumlashtirish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishning beshta o'zaro bog'liq komponentdan iborat konseptual modelini taklif etish mumkin. Mazkur model inklyuziv ta'limni tashkil etishning maqsadli, mazmuniy, tashkiliy, texnologik va natijaviy jihatlarini o'zaro integratsiyalashga asoslanadi.

- 1. Maqsadli komponent** barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarga asoslangan sifatli ta'lim muhitini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayonida ijtimoiy adolat, inson huquqlari va tenglik tamoyillarini amalga oshirishni nazarda tutadi.



2. **Mazmuniy komponent** inklyuziv ta'lim g'oyalari, insonparvarlik qadriyatlari, bag'rikenglik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik madaniyatini ta'lim mazmuniga integratsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy qabul qilish, hamkorlik va o'zaro hurmat kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.
3. **Tashkiliy komponent** davlat boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, mahalla, oila, sog'liqni saqlash tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda boshqa ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirishga qaratilgan. Samarali boshqaruv tizimi inklyuziv ta'limning barqaror amalga oshirilishi uchun muhim shart hisoblanadi.
4. **Texnologik komponent** innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim resurslari, interaktiv metodlar, individuallashtirilgan ta'lim dasturlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.
5. **Natijaviy komponent** esa jamiyatda inklyuziv madaniyatning qaror topishi, ijtimoiy sheriklik munosabatlari mustahkamlanishi, jamoatchilik fikrining ijobiy shakllanishi, bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasining oshishi hamda maktabgacha ta'lim sifati yaxshilanishi kabi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi.

Taklif etilayotgan konseptual model inklyuziv ta'limni rivojlantirishga tizimli yondashuvni ta'minlab, uning barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur model ta'lim siyosati, boshqaruv amaliyoti va pedagogik faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi ilmiy-metodik asos sifatida ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim sohasidagi milliy va xalqaro tajribalarni umumlashtirish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy hamkorlikni takomillashtirish va jamoatchilik fikrini ijobiy shakllantirishga qaratilgan quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni taklif etish mumkin.

Avvalo, har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni joriy etishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi kommunikatsion strategiya ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Mazkur strategiyada maqsadli auditoriyalar, kommunikatsiya kanallari, hamkor sub'yektlar, axborot resurslari, amalga oshirish mexanizmlari hamda kutilayotgan natijalar aniq belgilab qo'yilishi lozim. Bu esa ta'lim tashkiloti va mahalliy hamjamiyat o'rtasidagi axborot almashinuvini tizimlashtirishga hamda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, ota-onalarning pedagogik va psixologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz ta'lim tizimini yo'lga qo'yish zarur. Xususan, "Inklyuziv ota-onalar maktabi", maslahat markazlari, psixologik xizmatlar, amaliy treninglar, davra suhbatlari hamda interaktiv seminarlar tashkil etish orqali ota-onalarning inklyuziv ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash mumkin. Bu esa ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari mustahkamlash bilan birga, bolaning individual rivojlanishini kompleks qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Uchinchidan, mahalla fuqarolar yig'inlari, sog'liqni saqlash muassasalari, oliy ta'lim tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor va ommaviy axborot vositalari ishtirokida hududiy ijtimoiy sheriklik platformalarini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday platformalar inklyuziv ta'lim sohasida mavjud resurslarni birlashtirish, hamkorlikni muvofiqlashtirish hamda bolalarga kompleks xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlaridan keng foydalanish orqali aholining inklyuziv ta'lim haqidagi xabardorligini muntazam oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Rasmiy veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar, vebinarlar, multimedia materiallar va elektron qo'llanmalar orqali ilmiy asoslangan axborotlarni tarqatish jamoatchilik ongida inklyuziv madaniyatni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Beshinchidan, har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha ichki monitoring va baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu tizim doirasida pedagoglarning kasbiy kompetentligi, ota-onalarning qoniqish darajasi, bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari, ijtimoiy sheriklik sub'yektlari faolligi hamda jamoatchilik munosabatlaridagi ijobiy o'zgarishlar muntazam tahlil qilinishi lozim. Monitoring natijalari keyingi boshqaruv qarorlarini qabul qilish va inklyuziv ta'lim sifatini takomillashtirish uchun ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagoglarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan malaka oshirish dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, xalqaro tajribalar hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu pedagoglarning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, ta'lim tashkilotida inklyuziv muhitning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali joriy etish ko'p omilli, murakkab va uzluksiz ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Uning natijadorligi nafaqat normativ-huquqiy baza, moddiy-texnik ta'minot yoki pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi bilan, balki ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasida shakllangan ijtimoiy hamkorlik munosabatlari, jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi hamda jamiyatda qaror topgan inklyuziv madaniyat darajasi bilan ham belgilanadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali shakllantirish hamda inklyuziv madaniyatni keng qaror toptirish mamlakatimizda inklyuziv ta'lim sifatini yanada oshirish, barcha bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. 2019 yil 8 may, PQ-4312-son.
4. Гонеев А.Д. Основы коррекционной педагогики / А. Д. Гонеев. - М: Академия, 1999. - 272 с. стр-113
5. Дмитриев А.А. О подготовке кадров для системы специального и инклюзивного образования в свете его модернизации // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. 2015. № 4.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.